

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2023
2-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274



*Ma'naviyat-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.
1996-yilda tashkil etilgan.*

Tahrir hay'ati raisi:

Sh.U.Yakubov

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi direktori

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari:

M.X.Esanov

Bosh muharrir:

A.T.Eshmurodov

Bosh muharrir o'rinbosari:

A.A.Sabriyev

Tahrir hay'ati a'zolari:

L.R.Zaripov

A.A.Dadasheva

Sh.A.Rasulov

M.M.Inagamova

S.Q.Maxsumova

S.S.Samandarova

M.Q.Sultonov

S.S.G'oziyev

O.N.Toshpulatov

Jamoatchilik kengashi a'zolari:

Q.X.Abduraxmanov

Sh.T.Qudratxo'ja

G.Sh.Rixsiyeva

Sh.S.Sirojiddinov

R.I.Xolmurodov

A.I.Toshpulatov

N.M.Jabborov

M.A.Raxmatullaev

T.Z.Teshabayev

Dizayner:

S.Musamedov

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

Shoira Bekchonova.

Kiber pedagogika – XXI asrda raqamli ta'lim muhiti pedagogikasi6

Jasurbek Qurbonov.

Bo'lajak o'qituvchilar tomonidan yangi pedagogik texnologiyalarni
oliy ta'limda joriy etishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati9

Munisa Ashurova.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashi
uchun muhim bo'lgan shaxsiy fazilatlar12

Jamshid Xudaykulov.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'qish savodxonligini
oshirishda interfaol metodlardan foydalanish15

Maxmuda Dexqonova.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sportning o'rni va ahamiyati18

Muzaffarjon Jo'rayev.

Yangi avlod darsliklarining kognitiv va ijodiy salohiyati kasbiy
tayyorgarlikning muhim omili sifatida22

Nargiza Diyorova.

Lessons in pedagogy with modern information technology devices25

Равшанбек Мавлонов.

Педагогика назарияси ва амалиётида интеграцион ёндашувни қўллашнинг аҳамияти28

Dildora Axatova.

Abu Ali ibn Sino va Alisher Navoiy asarlari uyg'unligining ilmiy ahamiyati30

Aybek Igilikov.

Oliy ta'lim muassasalarida mathcad dasturi asosida o'qitish metodikasini shakllantirish32

Азиза Курбонова.

Умумтаълим муассасаларининг маданий-маърифий соҳасини кластерли
ёндашув асосида ривожлантириш35

Elnur Mirzayev, Rayhon Ergasheva

Geometrik shakllardan foydalanib natyurmort ishlash metodikasini takomillashtirish37

Гулбахор Ишмуродова.

Технологик таълим ўқитувчиларини тайёрлашни
Steam ёндашувлари асосида такомиллаштириш41

Nuriddin Yakubjanov.

Ma'naviy tahdidlarning milliy g'oya va jamiyat taraqqiyotiga
ta'siri va ularni bartaraf etish usullari45

Насиба Ходжаева.

Анализ некоторых результатов педагогических
исследований подготовки кадров по нанотехнологии48

Бахтиёржон Раззоқов.

Миллий хунарамандчилик турлари ва уларни
ўқитишда ўқув устахоналарга қўйиладиган талаблар51

Шоҳидахон Абдурахмонова.

Бўлажак муҳандисларнинг "материалшунослик" ва "конструкция материаллар
технологияси" фанини ўқитиш асосида амалий касбий тайёргарлигини
такомиллаштириш методикаси54

Туланмирза Нишонов.

Бўлажак иктисодчи талабаларнинг касбий компетенциясини
ривожлантиришда амалий-касбий масалаларнинг методик хусусиятлари56

Moxichexra Almardonova.

Kashta sifatidagi spektral – variativligining ba'zi jihatlari61

Zafar Negmatov.

Markaziy Osiyoda "C5+1" loyihasi ahamiyati64

Нилуфар Исакулова.

Дунё динлари тарихи бўйича электрон альтернатив ўқув платформасини яратиш66

Muassislar:

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi*

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Shifo nur ko'chasi, 75-uy

Telefon: (71) 207-03-41

e-mail: rmxat@edu.uz

Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 2014-yil 26-dekabrda 0506 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal har ikki oyda o'zbek, rus va ingliz tillarida elektron shaklda chop etiladi.

“Ta'lim, fan va innovatsiya”
jurnali O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2015-yil 18-noyabrda
218/5-sonli qarori bilan 13.00.00 –
PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha,
2018-yil 28-noyabrda 247/6-sonli
qarori bilan 23.00.00 – SIYOSIY
FANLAR bo'yicha doktorlik
dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan
ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ta'lim, fan va innovatsiya”
jurnalidan ko'chirib bosish faqat
tahririyatning roziligi bilan amalga
oshiriladi. Maqolada keltirilgan
faktlarning to'g'riligi uchun muallif
mas'uldir. Tahririyat fikri mualliflar
fikriga mos kelmasligi mumkin.

*Jurnalning to'liq matnini esijournal.uz rasmiy
saytidan yuklab olishingiz mumkin.*

*Maqola va murojaatlaringizni
[@esijournalbot](https://t.me/esijournalbot) telegram botiga yuboring.*

Алишер Азимов, Нафиса Таирова, Камола Арипова.

О истории аксонометрических проекции 69

Feruza Kurbanova.

Umummadaniy kompetensiya ta'limning ajralmas qismi sifatida..... 73

Гулбахор Ишмуродова, Жонибек Халилов.

Ишсизлар ва банд бўлмаган аҳолини касб-хунарларга ўқитишнинг
психологик-педагогик асослари 76

Faroxat Mirzaeva, Rahmonjon Darobov.

Bo'lajak o'qituvchilarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning o'ziga xos ahamiyati 80

Наргиза Рашидова,

Профессионал таълим муассасаси фаолияти самарадорлигида педагог
кадрларда жамоавий лидерлик компетентининг аҳамияти..... 84

Mavluda Karimova.

Umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish uchun ta'lim vositalari majmuasi..... 86

Хайринисо Ғаниева.

Инглиз ва ўзбек тилларида тиниш белгиларининг тамойилларга
асосланиш жиҳатлари 90

Malikaxon Nurutdinova.

Nodirabegim – Alisher Navoiyning ma'naviy shogirdi..... 93

Visola Raxmonova, Dilshoda Uchqunova, Gulayim Baymuratova.

The blockchain computing model and its benefits..... 96

Baxrom Mavlyanov.

Maktabgacha ta'lim muassasasida futbol darslarini
tashkil etish metodikasi..... 99

Fazilat To'xtayeva.

Raqamli savodxonlik ta'lim sifatini ta'minlash omili sifatida..... 102

Nigora Shakadirova.

“Blended learning” texnologiyasi oliy ta'lim jarayonida talabalar
faolligini oshiruvchi vosita sifatida..... 106

Насиба Тургунова.

Ёшлар сиёсати ва уни амалга оширишга оид концептуал ёндашувлар 109

Asalxon Azizova.

The use of contextual digital technology to improve students' self-efficacy..... 114

Lola Mahammadiyeva.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni
shakllantirish yo'llari 117

Nargiza Muhamadiyeva.

O'quvchilarning hunarmandchilikka oid kreativ faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari 120

Feruza Xiloliddinova.

Kommunikativ kompetentligini rivojlantirish 123

Malika Bayzakova, Dildora Utanbayeva.

Pirls Xalqaro baholash dasturiga tayyorlash metodikasi 126

Кларахон Мавлонова.

Матн тузилишига доир таълимий бирликлар хусусида 129

Madinabonu Tairova, Nargiza Qodirova

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari me'yoriy hujjatlarini yuritish tizimini
raqamlashtirishning metodlari, shakllari va vositalari 133

Бобур Қодиров.

Remote labs методидан фойдаланиб маълумотлар базаси фани
машғулотларини ташкил этиш 136

Sevara Giyosova.

Teaching reading skills 139

Farxad Tashpulatov.

Sambo kurashi bilan shug'ullanish jarayonida og'ir sport turlari bilan birga jismoniy
mashqlar kompleks dasturlarini qo'llash 142

Gulnozaxon Rasulova

3D texnologik muhit uchun ta'lim faoliyatini loyihalash 144

Abror inatov, Istam aminov

Talabalarning informatika fanidan mustaqil ta'limga oid kasbiy kompetentligini
shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi 147

Хабиба Агалиева.

Касб-хунар мактаби ўқувчиларини касбий фаолиятга тайёрлашда коммуникатив компетентликни шакллантириш муаммолари ... 150

Gulnoza narmurodova.

Ingliz va o'zbek tillarida ta'ziya bildirish jarayonida etiketning o'ziga xosligi.....153

Aziza Kobilova.

Oliy ta'limda maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining innovatsion kompetentligini shakllantirish mohiyati.....155

Ravshan Mardonov.

Inson va fuqaro huquq va erkinliklari tizimida oliy ta'lim159

Нурилла Юлдашев.

Нахождение собственных значения оператора лапласа со смещениями в производных163

Oybek Daminov, Namuna Yuldashova.

Ways to improve the efficiency of the educational process in a modern higher technical educational institution166

Feruz Safarov.

Texnologiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....170

Dildora Israilova.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ertaklar orqali ingliz tilini o'rganishga undash, tanqidiy fikrlashni oshirish.....172

Shirin Shomurotova.

Kimyo ta'limida didaktik o'yinli dars mashg'ulotlarining o'rni175

Собир Эрданов, Мунира Собиржонов.

Проблемы современного обучения русского языка в начальных узбекских школах178

Muxiddin Norqobilov.

Sport klublari ishidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari.....182

Lolaxon Turayeva.

Absolyut elastik to'qnashish mavzusini maple dasturiy vositasida o'qitish184

Азиза Ғаниева.

Мактабгача таълим муассасалари раҳбарларини касбий шакллантириш йўналишлари.....188

Lochin Zaripov.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida modulli ta'limning ahamiyati.....191

Севара Хамидова.

Парадоксни ўрганишнинг тарихий истикболи ва унинг терминологик хусусиятлари194

Дилфуза Очилдиева, Замира Сапарова.

Древнерусские меры длины197

Жамолiddин Халилов.

Ўзбекистон ривожланишининг янги босқичида “маънавий ҳаёт тамойиллари” тушунчасининг мазмун-моҳияти ва намоён бўлиш хусусиятлари200

Umid Eshniyozov.

Ta'lim klasteri muhitida talabalarining eksperimental ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish jarayoni203

Феруза Тешабоева.

Методик кластер – олий таълим самарадорлигини оширишнинг инновацион механизми сифатида206

Shohida Mahkamova, Mastura Asadullayeva.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilar musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari209

Durdona Ergasheva.

Yashirin zakovat nazariyasi212

Маъсума Мўминова.

“Сув” лексемасининг дунё тилшунослигида ўрганилиши215

Yashnarjon Jo'rayev.

Avtomaktablarda va ta'lim muassasalarida avtomobil haydovchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish217

Nodira Mamatkulova.

Sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlik221

Husniddin Amrillayev.

Oliy ta'lim muassasalarida virtual laboratoriyalar asosida o'quv jarayonini takomillashtirish225

Sevara Botirova.

O'smir yoshli o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlanishi xususiyatlari228

Nurbek Umarov.

Milliy dastur talablari asosida boshlang'ich ta'limda tenglamalarni o'rganishga yangicha yondashuv231

Shohida Mahkamova.

Musiqi mashg'ulotlarida talabalarda millatlararo totuvlik hissini shakllantirish234

Baxtiyor Turdimurodov.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish texnologiyasi237

Farida Esanqulova.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanishning tashkiliy-pedagogik shartlari.....241

Jaxongir Sagdullayev.

Yoshlar jinoyatchiligini oldini olishning nazariy asoslari244

Bakhtigul Isakulova.

Didactic games for building critical thinking skills.....247

Севара Хамидова.

Парадоксининг лингвокультурологик таҳлили250

Muxayyo Alikulova.

Modellashtirilgan qadriyatlardan maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasini shakllantirishda foydalanish.....253

Suhrob O'ralov.

Tarix fanlarini integratsiyalashtirish tamoyili asosida o'qitishning ahamiyati.....256

Dilnoza Urazbayeva.

O'quvchilarga chet tilini o'qitishning ijtimoiy-pedagogik muammolari259

Baxtiyor Raxmanov, Azada Imamxodjayeva, Xurshida Ubaydullayeva, Dilshod Usmonov, Botirjon Sobirov, Muxammadjon Mirzaxmedov, Shuxrat Shermatov, Zabardast Buriyev, Ibrohim Abdurahmonov.

Artemizinin biosinteziga aloqador genlar asosida tuzilgan sun'iy genetik konstruksiyalarni agrobakteriyalar yordamida hayotga keltirish.....262

Habiba Jurabekova.

Shaxsning kommunikativ kompetentligi va raqamli hayot265

Azamat Usmanov.

Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni: xorijiy tajriba va milliy xususiyatlar268

Ozoda Abdumuminova.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyalarini kreativ yondashuvlar asosida rivojlantirish272

Shukhrat Alikulov, Sherzod Zairov, Ravshan Ibragimov.

Laboratory and industrial studies of an increasing of the permeability of the uranium formation by influencing with electricity underground leaching.....276

Azimjon Qosimov.

O'zbekistonda davlat xizmati kadrlari masalasi281

Ирода Хамраева.

Ихтисослаштирилган таълим ташкилотлари ўқиш дарсларида ўқувчиларнинг китобхонлик ва коммуникатив

компетенцияларини шакллантириш.....	283	Javlonbek Zulxaydarov. Pedagogik ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak mutaxassislarni kasbga tayyorlashning individual yondashuvi.....	413
Gulruh Majidova. Activation of critical thinking skills in teaching english in digital learning environments.....	287	Фароғат Жаҳонгирова. “Тарбия” фанини ўқитиш жараёнида “сунани термизий” асари асосида ўқувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиялашни ривожлантириш услубий имкониятлари.....	416
Abduqodir Norboyev. Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o'tkazish metodikasi.....	291	Жамшидбек Отажонов, Нигора Хакимова Развитие логического мышления у детей дошкольного возраста.....	418
Qunduz Alimova. Mediata'lim muhitida bo'lajak maktab menejerlarini o'qitish.....	294	Muxabbat Mirazimova Oilada ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish.....	421
Gulruh Majidova. Using modern approaches in teaching english.....	297	Odinaxon Usmonova. Kichik yoshli maktab o'quvchilariga ona tili va o'qish savodxonligini o'rgatishda mnemotexnikadan foydalanish.....	423
Olima Muxidova. O'qituvchining transversal kompetensiyasi uning kasbiy va shaxsiy sifatlarining namoyandasi sifatida.....	300	Muxlisa Omonova. O'qituvchi pedagogik tafakkurining mohiyati va tavsifi.....	426
Iroda Ergasheva. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida nasriy asarlar ustida ishlash metodikasi.....	303	Мукаддас Ахмедова, Дилорам Фаттахова. О формах и методах проектного обучения.....	429
Nargiza Nurillaeva, Mubarakkhon Zokirova, Nargiza Khasanova Evaluation and analysis the involvement of a fibrinolysis inhibitor of the coagulation system in the progression of coronary heart disease chd.....	307	Gulchexra Ergasheva. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish metodikasi.....	432
Гулноза Шодиева. Бошланг'ич синф ўқувчиларининг ўқув-билиш компетенцияларини pirls баҳолаш дастури талаблари асосида шакллантириш.....	311	Хокимбек Ахмадбеков. Хорижий давлатлар тажрибаси асосида почта алоқасини тизимли автоматлаштириш.....	434
Dilrabo Ashurova. Abduqodir Shakuriyning pedagogik faoliyati.....	313	Maftuna Normatova. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ritmika mashg'ulotlari.....	437
Murodjon Abdurahmanov. The method of training the flexibility of the joints in children who have started practicing karate.....	316	Хурсаной Очилова. Таълим кластери муҳитида бўлажак мутахассисларни устоз-шогирд тизими асосида касбий фаолиятга тайёрлаш технологияси.....	439
O'tkir Achilov. Oliy ta'lim muassasalarida pedagoglar talabalarning o'quv jarayonida elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanib baholashning funktsionallik didaktik tamoyili.....	319	O'rinboy Nurtayev. Badiiy ta'lim tizimida pedagogik o'qitish jarayonini texnologiyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	442
Жамшидбек Отажонов, Эвелина Усарова. Совершенствование коммуникативных способностей у детей дошкольного возраста.....	322	Робия Тошбоева. Проект «Кадастр – 2034»: перспективы и прогнозы осуществления в узбекистане.....	444
Фарида Тоҳирова. Тиббий педагогика таълим йўналиши талабалари касбий тафаккурини ва касбга бўлган қизиқишини шакллантиришнинг педагогик-психологик хусусиятлари.....	325	Sanobar Ashurova. Professional ta'limda modulli-kompetentli yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash.....	448
Феруза Шакарова, Гузал Ядгарова. Формирование языковой компетенции студентов при обучении языку специальности.....	328	Матлюбахон Назаралиева. Инглиз тилида интеграциялашган рецептив нутқ малакаларини шакллантириш юзасидан кўрсатма ва маслаҳатлар.....	451
Dilorom Abduxamidova. Pedagog tarbiyachilarni turli millatga oid bolalar bilan ishlashga o'rgatish.....	331	Elmurod Soatov. Kurash va milliy jang san'atining texnik jihatlarini uyg'unligining tarixiy omillari.....	454
Zuxra Akramova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga amaliy yondashuv.....	334	Фарида Тоҳирова. Тиббий педагогика таълим йўналиши талабалари касбий тафаккурини ва касбга бўлган қизиқишини шакллантириш аспекти.....	457
Немат Худайбердиев. Турист-мехмонхона мажмуаларининг иктисодий бирликлар сифатидаги моҳияти.....	338	Nilufar Rasulova, Zebo Sattarova, Dilfuza Mirdadayeva. Prevention of important non-communicable diseases among the population: uzbekistan and foreign experience.....	463
Коссе Рулен. Методика обучения тренировке задачи содержания учебно-тренировочного процесса.....	402	Хуршед Рузиев. Чет тилини ўқитиш жараёнида талабаларда ахборот-коммуникация компетенциясини шакллантиришда изчилликни амалга ошириш.....	466
Baxtiyor Haydarov. Bolalar jismoniy faolligini noan'anaviy vositalar asosida tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini.....	405	Ойбек Жиянов. Педагогик технология тушунчаси ва янги педагогик технологиянинг ўқитиш принциплари.....	469
Муслима Бозорова. Этнопедагогик компетенция бўлажак ўқитувчининг этник-маданий тайёргарлиги асоси сифатида.....	409	Mahfuza Sa'dullayeva. Tarix ta'limida mnemonika: xotiradan to'g'ri va noto'g'ri foydalanish.....	471

Мухайё Байбаева, Мадина Мажидова.

Роль классного руководителя в повышении качества обучения474

Muyassar Tuxtayeva.

Sanoat klasterlarini shakllantirish mexanizmining ilmiy-nazariy asoslari.....477

Botir Safarov.

Xalqaro baholash dasturlari (pirls) asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish....480

Раънохон Шарофутдинова.

Бошланғич синф ўқувчиларининг ижодий ривожланишида ҳамкорлик кластери.....484

Xurshidjon Maxmudov.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni tarbiyalashda sharq va g'arb mutafakkirlarining qarashlari.....487

Назокат Абидова.

Аутизм спектри бузилиши бўлган болаларни оилада тарбиялашнинг айрим масалалари490

Azizjon Xojiev.

Bo'lajak muhandislarni o'qitishda individual ta'lim trayektoriyasini qo'llash samaradorligi.....492

Музаффар Тожибоев, Дильдора Юнусова.

Основные формы и организация самостоятельных занятий497

Safar Bobojanov.

O'zbekistonda imkoniyati cheklangan fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishning me'yoriy huquqiy asoslari.....500

Gulnoz Amanova.

Talabalarining kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish.....503

Паризода Рахматова.

Современные образовательные технологии на уроках русского языка.....506

Shaxnoza Amirsaidova.

Alohida yordamga muhtoj o'quvchilar shaxsining rivojlanishida axloqiy tarbiyaning o'rni.....509

Nodira Tashtemirova, Kamoliddin Bekmirzayev.

Davlat boshqaruv organilarida elektron hujjat aylanish tizimini muvofiqlashtirishning ahamiyati va o'rni.....512

Muhammad Yo'ldashev.

Elektron hujjat aylanish tizimini optimal algoritmini ishlab chiqish tendensiyalari.....515

Dilbar Tursunova.

O'quvchilar mustaqil fikrlashining psixologik xususiyatlari.....518

Hakimjon Zayniddinov, Sarvar Maxmudjanov,

Abduqahhor Otajonov, Islomjon Inog'omov. Tibbiyotda signallarni qabul qilish qurilmalarini masofadan boshqaradigan algoritmi va ilova ishlab chiqishning zamonaviy tendensiyalari hamda afzalliklari.....522

Muhammad Sultonov.

“Ma'naviy qiyofa” tushunchasi, rivojlanish xususiyatlari va uning namoyon bo'lish shakllari.....525

Жамшидбек Отажонов, Нигора Хакимова.

Развитие творческих способностей у воспитанников подготовительных групп528

Дилором Ойматова.

Оилавий кадрларнинг шахс камолотига таъсири.....531

Zafarjon Xamraqulov.

Jinoyat huquqi fanining o'qitilishida muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llash533

Ихтиёр Камолов, Дилнавоз Камалова, Сарвиноз Баракаева.

Муқобил энергия манбаларидан фойдаланишнинг келажак истикболлари536

Saodat Toshtemirova.

Darslik tarix fanlarini o'qitishda asosiy manba va jarayonni tashkil etish vositasi sifatida539

Равшана Исакова, Навруза Бегматова.

Использование информационно-коммуникационных технологий в процессе обучения русскому языку студентов иноязычных групп.....543

Ravshanbek Karimov.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim klasterlarini tashkil qilish shartlari.....546

Мусурмон Хуррамов, Камила Халмуратова, Элёр Мойлиев.

Олий таълим муассасаларида келажак касбларига мос равишда кадрлар тайёрлаш.....548

Saodat Mirpayazova.

Determining the academic progress of learning languages and the role of assessments in the quality of education.....552

Санобар Ашурова.

Ўқитиш тамойиллари таълим жараёнида дидактик воситалар ва материаллардан фойдаланишнинг асоси сифатида555

Guli Muxamedova.

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish.....557

Нилуфар Абидова.

Бўлажак махсус педагогларда касбий компетентликни ривожлантириш560

Doniyor Nafasov.

Turizmning pedagogik asoslari.....563

Наргиза Пулатова.

Методика обучения русскому языку в национальных группах.....566

Sayyora Azimova.

Ota-onalarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyasi569

Salima Abdurizayeva.

Biologiya fani o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish573

Одил Очилов, Умид Рустамов, Комилжон Маликов.

Обучение студентов к оценке влияния повышения температуры среды на светопоток светодиодов.....576

Umida Usmonova.

Publitsistik matnni sintaktik-stilistik aspektda o'rganish.....579

Fayoz Xalilov, Zarnigor Abidova.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida bitiruvchi mutaxassisning kompetentli modeli.....581

Бекзод Юсупов.

Талабаларнинг когнитив фаолиятини таркиблаштириш асосида такомиллаштириш жараёнини моделлаштириш585

Лаззат Сайдалиева.

Использование педагогических технологий на уроках математики588

Dilnoza Zokirova.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlashning metodik modeli590

Акбар Эшмуродов.

Маънавий инкироз жараёнлари ва уларни бартараф этишнинг сиёсий технологиялари594

Sunnat Musamedov.

Davriy nashrlarni tasviriy-badiiy bezashning o'ziga xos xususiyat va tendensiyalari598

Тўйчи Ахмедов.

Кенгаши институти билан боғлиқ тушунчалар: моҳияти ва мазмуни.....602

дар институт бинолари томларида 350 kW лик Куёш панелларини ўрнатди. 1 kW лик Куёш панеллари 5-6 м² майдонни эгаллашни инобатга олсак, 2000 м² дан зиёд майдонларда Куёш панеллари ўрнатилди.



НавДПИ ўқув биноларининг том қисмида ўрнатилган Куёш панеллари

350 kW лик Куёш панеллари 2023 йилнинг январь ойида 32000 kW·соат электр энергиясини ишлаб чиқарди. Институт бўйича 2023 йил январь ойида истеъмол қилинган электр энергияси 44000 kW·соат ни ташкил этди ва 75% га яқин электр энергиясининг истеъмоли Куёш панеллари ҳисобига қопланди. Бу белгиланган меъёрдан анча кам. Бунга асосий сабаб кишда Куёшли кунларнинг камлиги ҳисобланади. Шунингдек, 2 ҳафталик талабалар таътилини инобатга оладиган бўлсак, истеъмол қилинган электр энергиясининг миқдори ҳам оз. Агар ўтган 2022 йилда институт бўйича 1 миллион 20 минг kW·соат электр энергияси истеъмол қилинганини инобатга олсак, институт бўйича яна қўшимча равишда 100 kW лик Куёш панеллари ўрнатиш зарур бўлади, шундан сўнг институтнинг энергия эҳтиёжи тўла қопланади.

Қуйидаги жадвалда Куёш панеллари ҳақидаги маълумотлар келтирилган:

№	Куёш панели қуввати	Куёш панелининг эгаллаган майдони, (м ²) ларда	Йиллик ишлаб чиқарадиган электр энергияси прогнози
1	5 kW·соат	30–60	7500–12500
2	10 kW·соат	60–120	15000–25000
3	20 kW·соат	120–240	30000–50000
4	30 kW·соат	180–360	45000–75000
5	40 kW·соат	240–480	60000–100000
6	50 kW·соат	300–600	75000–125000
7	100 kW·соат	600–1200	150000–250000
8	200 kW·соат	1200–2400	300000–500000
9	300 kW·соат	1800–3600	450000–750000
10	400 kW·соат	2400–4800	600000–1000000

Хулоса шуки, 450 kW лик Куёш панелларининг умумий йиллик электр энергиясини ишлаб чиқариш қуввати 1,1 миллион kW·соат га тенг бўлишини эътиборга олсак, у ҳолда 2023 йилда институтнинг электр энергиясига бўлган эҳтиёжи тўла Куёш панеллари ҳисобида олинган энергия ҳисобида қопланади ва орттирилган энергия институт бюджетига қўшимча маблағ сифатида туширилади.

Куёш энергиясининг истеъмоли, уни қайта ишлаш ва тарқатиш усулларига кўра Куёш тизимлари иккига бўлинади: фаол (Куёш энергиясини фойдали энергияга айлантирувчи тизимлар) ва пасив (иншоот ва биноларнинг Куёш тушишига нисбатан қурилиши,

дизайн ва ҳ.к.). Фаол тизимлар электр таъминотини оширишга хизмат қилса, пасив тизимлар энергияга бўлган эҳтиёжни камайтиришга хизмат қилади.

Ҳозирда заводларда ишлаб чиқарилаётган Куёш панелларига берилаётган 25 йиллик кафолат муддатларини эътиборга олганда, бу йўналишда электр энергияси олиш экологик жиҳатдан зарарсизлиги билан биргаликда етарлича истиқболли ҳам ҳисобланилади ва бу борадаги ишларни янада ривожлантириш зарур бўлади. Бунинг учун биз аввало, кенг омма орасига тўғри тушунтиришни йўлга қўйишимиз ва афзалликлари ҳақидаги тарғибот-ташвиқот ишлари олиб боришни амалга оширишимиз зарур бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Камолов И.Р., Камалова Д.И., Сайфуллаева Г.И., Баракаева С.Т., Саттарова Б.Д. “Астрономия курсидан амалий машғулотлар” (Астрофизика) ўқув қўлланма. – Т.: Тилсим нашриёти, 2023. – 196 б.
2. Камолов И.Р., Камалова Д.И., Сайфуллаева Г.И., Сатторов А.Р., Тиллабоев А.М. “Умумий астрономиядан амалий машғулотлар” дарслик. – Т.: Тилсим нашриёти, 2023. – 268 б.
3. Камолов И.Р., Камалова Д.И., Канатбаев С.С., Бисенова Б.Т., Сайфуллаева Г.И. “Жалпы астрономия”, дарслик. – Т.: Тилсим нашриёти, 2023. – 360 б.

DARSLIK TARIX FANLARINI O'QITISHDA ASOSIY MANBA VA JARAYONNI TASHKIL ETISH VOSITASI SIFATIDA

Saodat Toshtemirova,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya

Maqolada darslikning pedagogik muammo sifatidagi tahlili, bu bo'yicha mutaxassislar fikr-mulohazalari hamda darslikning asosiy vazifalariga to'xtalib o'tilgan. Darslikni tayyorlashda matnlarning ahamiyati, uning qo'shimcha komponentlari, asosiy tamoyillar, tarkibiy qismlar va unga qo'yilgan talablar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: darslik, xususiyat, muvofiqlashtirish, axborot, matnlar, rivojlantirish, yordamchi komponentlar, qo'shimcha matnlar, tarbiyaviy vazifa, kumulyativ vazifa, tiizmlashtirish, mustahkamlash, integratsiyalash, o'qitish.

Аннотация

В статье проводится анализ учебника как педагогической проблемы, мнения специалистов и основные задачи учебника. Отмечено значение текстов, его дополнительных компонентов, основных принципов, компонентов и требований к учебнику.

Ключевые слова: учебник, особенность, согласование, информация, тексты, развитие, вспомогательные компоненты, дополнительные тексты, учебное задание, накопительное задание, систематизация, усиление, интеграция, обучение.

Annotation

The article analyzes the textbook as a pedagogical problem, the opinions of specialists and the main tasks of the textbook. The importance of texts, its additional components, basic principles, components and requirements for the textbook is noted.

Keywords: textbook, feature, coordination, information, texts, development, auxiliary components, additional texts, learning task, accumulation task, systematization, reinforcement, integration, training.

Darslik – ta'lim mazmunining tashuvchisi va maktabda o'qitishning asosiy vositasidir. Ta'lim sifatini oshirishning muhim muammolaridan biri – bu o'quv darsligining sifatini oshirishdir. Yaxshi darslik nafaqat o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi, balki o'qituvchi tayyorlashdagi kamchiliklarni ham bartaraf etadi, ya'ni o'qituvchi darslik asosida muayyan metodik yo'nalish asosida darsni tashkil qiladi. Dars beradigan o'qituvchi o'rtacha salohiyatli bo'lsa-da, darslik sifatli tarzda tayyorlangan bo'lsa, darsni samarali tashkil qila olishi mumkin. Fundamental tadqiqot olib borgan tadqiqotchilarning fikricha, darslik tayyorlovchi mutaxassislar chuqur ilmiy bilim va dunyoqarashga ega bo'lishi, bolaning yosh xususiyatlarini va darslikga qo'yiladigan didaktik talablarni mukammal bilishi lozim.

MDH olimlaridan K.D.Ushinskiy, V.V.Krayevskiy, Y.K.Babanskiy, V.I.Smirnov, N.M.Rozenbax, A.Z.Rahimov, V.P.Bespalko, L.V.Zenkova, V.G.Beylinson, A.Baytursunov, M.Jumaboyev kabilar, xorij olimlaridan R.Segan, F.M.Jerar, K.R.Roje, J.M.Ketel, M.Postik kabilar ta'lim sifatida o'quv adabiyotlarining ahamiyati va ularning vazifalari bo'yicha tizimli islohatlar olib borganlar va o'quv darsligining ta'limdagi o'rni bo'yicha o'z yondashuvlarini ishlab chiqqanlar. Amaliyotda darslikning vazifasi ajratilib ko'rsatilgan tadqiqotlar yo'q. Bizga ma'lumki, ta'limning maqsadi natija ta'lim oluvchi kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Bu bog'liqlik haqida V.P.Bespalko zamonaviy darslik mualliflari darslikka ma'lumot (material) kiritayotganlarida

ushbu ikkita yondashuv orasidagi farqni yaxshi ajrata olishlari lozimligini alohida ta'kidlaydi. Ta'lim sifatini oshirishning muhim muammolaridan biri o'quv adabiyotlari sifatini ta'minlash hisoblanadi. Bu borada mashhur fransuz o'qituvchisi A.Shoppe shunday degan edi: "Darslik – millatni shakllantiruvchi hodisa" [1, 9]. Mazkur fikrlari orqali Shoppe ta'lim jarayonida darslikga berilgan e'tiborni millat tarbiyasiga berilgan e'tibor sifatida ta'riflaydi. Atoqli olim M.N.Skatkin esa o'quv darsligida ma'lum darajada o'qitish metodikasi kiritilganligini, darslik bo'lajak trening, o'ziga xos stsenariy ekanligini aytadi [2, 213]. V.I.Smirnov fikricha, darslik 4 ta vazifani bajarishi zarur [3, 25]: ta'limiy, rivojlantiruvchi, pedagogik, texnologik. U ta'lim sifati mana shu vazifalar bilan farqlanishi lozimligini alohida ta'kidlaydi.

V.M.Rozin darslik 3 ta: o'qitish; ta'limiy; rivojlantiruvchi vazifalarni ta'minlashi zarur deydi [2, 214]. I.Y.Lerner ta'lim jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida baholab, barcha ijtimoiy munosabatlar tizimini aloqadorligini nazarda tutgan holda, "Darslikning muhim vazifasi unda ijtimoiy muhim savollarning yechimi bo'lishi kerak" [4, 71], degan fikrni bildiradi. Darhaqiqat, darslik o'sib kelayotgan yosh avlodni savodli qilish bilan birga, haqiqiy hayotga ham tayyorlab borishi kerak. Bu jabhada Lerner aytgan fikrlar juda o'rinli. Mantiqiy-psixologik konsepsiya muallifi A.Z.Raximovning ta'rifi ham o'ziga xos bo'lib, u "Darslik – yangi bilimni o'zlashtirish vositasi emas, balki o'quvchilarning qalbi va ongini qiziqtiradigan ijtimoiy ahamiyatga ega obyektidir", deya ta'kidlab o'tadi. Bunda

olim darslik qanchalik kuchli ilmiy asosga ega bo'lsa-da, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda bo'lishi, ularni zeriktirib qo'ymasligi kerakligi, ulardagi hayotiy savollariga javob bera olishi lozimligini asosli ravishda izohlaydi. Umumta'lim maktablaridagi tarix darsliklari ham o'quvchining yosh xususiyatlariga ko'ra tayyorlanishi lozim.

Rus pedagogi D.D.Zuyev darslik o'zlashtirilgan bilimlarni muvofiqlashtirish, tizimlashtirish, axborotlashtirish, to'plash (o'zgartirish), o'zlashtirgan bilimlarni mustahkamlash, ko'nikmalarni rivojlantirish vazifalarini bajarishi kerakligini alohida e'tirof qiladi.

Yuqoridagi darslikning vazifalarini tahlil qilgan holda, uning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Darslikning muvofiqlashtiruvchi vazifasi barcha o'quv qo'llanmalaridan samarali funksional foydalanishni ta'minlaydi [5, 214]. U vazifalarni tavsiflashda mavjud muammolarga alohida e'tibor beradi. Zamonaviy darsliklarda o'quvchilarning ilmiy fikrlash uslublarini shakllantirish uchun barcha mavjud ma'lumotlar bilan puxta ishlanishi va ta'lim oluvchilarning o'z xatti-harakatlariga mustaqil baho berishiga o'rgatishi lozim [1, 13]. V.G.Beylinson darslikga o'zining vazifalar tizimini taklif qiladi. Uning fikricha, darslikda vazifalar joylashuvi shunday qo'yilishi kerakki, har bir yangi vazifa eskisining asosiga qurilishi kerak [6, 129]. Bunda olim mantiqiylik, tizimlilik, davomiylik tamoyillariga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. Bularning ichida tizimlilik tamoyili eng asosiy sifatida e'tirof qilinadi. V.G.Beylinson darslik o'qitish uchun yaratiladi, to'g'ridan to'g'ri tarbiyalamaydi, deydi. Agar biz olimning fikrini tahlil qiladigan bo'lsak, darslikda berilgan didaktik ma'lumotlarni to'g'ri yetkazib berish, tarbiyalovchi ahamiyatini, jozibadorligini oshirishda fan o'qituvchining o'rni katta ekanligini ta'kidlaydi. Olimning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonidagi tarbiya o'z maqsadiga faqat faoliyatiga yo'nalish berish orqali erishilishi mumkin [6, 247]. D.D.Zuyev va V.G.Beylinson tomonidan aniqlangan vazifalar o'rtasida o'xshashliklar mavjudligini ko'rish mumkin. Ikkala olim ham darslikning quyidagi vazifalarini asoslab o'tgan:

1. Axborot vazifasi. D.D.Zuyevning fikricha, darslik ta'lim mazmunini belgilaydi va o'rganishda harakatlar tizimini shakllantiradi [5, 252]. Mavzu taqdim etilgan ma'lumotlarni himoya qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. V.G.Beylinson ham xuddi shunday yondashuvda quyidagi fikrni ta'kidlaydi: "Ta'lim mazmunini bilmasdan turib, kitob amaliy harakat usullarini o'rgata olmaydi va o'quv darsligi hisoblanmaydi" [6, 256]. Darslik o'quvchilarga tarix fanlari bo'yicha kerakli va yetarli ma'lumotlarni beradi. Umumta'lim maktabining 5-sinfi uchun "Tarixdan hikoyalar" darsligining mazmuni amaldagi Milliy o'quv dasturiga to'liq mos kelishi talab etiladi, biroq bunda hali yechimini topmagan muammolar hali xanuz uchrab turibdi. Umumta'lim maktabining 5-sinfning tarix fani o'quvchining yosh xususiyatiga ko'ra tayyorlanishi materialni tez va oson o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Milliy o'quv dasturida keltirilgan mavzu hajmi, talablar darslikda to'liq aks etishi lozim. Bundan tashqari darslikda dars uchun qo'shimcha tarixiy bilim manbalarini jalb qilish ham talab etiladi. Darslik materiallari bilan kam ta'minlanishi o'quvchining kognitiv faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi umumta'lim maktabining barcha sinflari uchun tarix darsliklarida qo'shimcha manbalarni ham o'quvchi yosh xususiyatiga ko'ra tanlab foydalanishi, tarixiy badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar, hujjatli manbalarga murojaat qilishi mumkin.

Darslik matnlari tabiatan xilma-xil: hikoya qiluvchi, tavsiflovchi, tushuntirish kabi qismlarni o'z ichiga oladi: ular nazariy qoidalarga nisbatan ko'proq daliliy materiallarni taqdim etadi, bu maktab o'quvchilarining kognitiv imkoniyatlariga mos keladi. Darslikda asosiy matnlardan tashqari turli xil qo'shimcha materiallar ham keltiriladi. "Qiziq" rukni ostida o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiruvchi kognitiv xarakterdagi matnlar taqdim qilish maqsadga muvofiq. Ularda, masalan, nomlar va ularning ma'nosi haqidagi ma'lumotlar, kiyim-kechak, qurol-yarog', pul tarixidan, yodgorliklarning yaratilish tarixidan va hokazo ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, asosiy matnlar badiiy asarlardan parchalar bilan to'ldiriladi, materialni hissiy idrok etish uchun avval sinfda o'quv jarayonida tanishtirilishi, qo'shimcha ma'lumotlar, rasmlar bilan idrok qilishga ko'maklashuvchi vositalar tatbiq etilishi zarur. Darslikning illyustrativ materiali boy va rang-barang bo'lib, u tarixiy bilimlarning qimmatli manbasidir, shuning uchun mavzu matni ustida ishlashda ulardan samarali foydalanish zarur. Darsliklardagi illyustratsiyalar asosida o'quvchilarda tarixiy g'oyalar va tushunchalar shakllanadi.

2. Rivojlantirish vazifasi. Darslikning bu vazifasi har bir mavzuga kognitiv qiziqish uyg'otadigan va o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiruvchi qo'shimcha materiallarni kiritish asosida amalga oshiriladi. U "Matnda uchraydigan tarixiy shaxslar, joylar va atamalarni bilib oling" sarlavhasi ostida berilgan va o'rganilayotgan davrga mos materiallarni yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Mavzularga mos holda qo'shimcha matnlar ham taqdim qilinishi kognitiv faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, darslikda mustahkamlash uchun taqdim qilinadigan jadval va topshiriqlar sinfda barcha o'quvchilar tomonidan o'rganilishi, tarixiy materialni yaxshi o'rganish uchun qo'shimcha sifatida taklif qilinishi mumkin.

Darslikdagi savol va topshiriqlarning xilma-xilligi o'quvchilarning bilish jarayonlarini, turli manbalar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ba'zi bir murakkablikdagi savollar va topshiriqlar (yulduzcha bilan belgilangan) aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun ham alohida ajratilib ko'rsatilishi lozim. Darsliklardagi savollar chuqur mulohaza yuritishni talab qilishi, keng bilim, ko'nikmalar turli manbalardan foydalanishni belgilashi o'rinli, albatta, lekin o'quvchida-

gi fiziologik va jismoniy xususiyatni ham inobatga olish lozim bo'ladi [7, 27].

Darslik nafaqat bilimlar tizimini taqdim etishi, balki bilish jarayonining tuzilishini ham tashkil qilishi kerak. Darslikning vazifasi o'quv materiallarini tashkil etishda psixologik va didaktik qonuniyatlarni hisobga olishni talab qiladi. Matnlar darslikning asosiy komponenti sifatida bo'lib quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi: tavsiflovchi matnlar; hikoya matnlari; fikrlash matnlari. Matndan tashqari yordamchi komponentlar: assimiylatsiyani tashkil etish; savol va topshiriqlar, eslatmalar, o'quv materiallari, jadvallar, rasmlar va mashqlar va ularga sarlavhalar; ko'rgazmali materiallar; mo'ljalli (oriyentatsiya) qismi: muqaddima, eslatmalar, ilovalar, mundarija va indekslar darslikning yordamchi tarkibiy qismlari hisoblanadi.

3. Tarbiyaviy vazifasi. Darslik mazmunan o'quvchilarga kuchli ma'naviy ta'sirni nazarda tutadi. Darslik materiallari katta tarbiyaviy salohiyatga ega, shuning uchun matnlarni o'qishda o'quvchilardan nafaqat faktlarni bilish, balki ularning o'rganilayotgan hodisalarga, odamlarning harakatlariga va boshqalarga munosabatini izlash muhimdir. Ba'zi savollarni shakllantirishda aspektni kuzatish mumkin (masalan, "Darslikda joylashtirilgan rasmlardan birini tasvirlab bering, u sizda qanday his-tuyg'ularni uyg'otadi?"; "Tarixiy obidalarni asrash va himoya qilish nega kerak?" va hokazo). O'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash istagi va ko'nikmalarini shakllantirish uchun darslik zarur bo'lgan ma'lumotlarni yuqori darajada taqdim qilishi lozim.

4. Kumulyativ vazifa (transformatsion). Darslik asosida kiritilgan bilimlarni qayta ishlash bilan bu vazifa ilmiy-texnikaviy, badiiy qimmatli va didaktik tamoyil va qoidalarini o'rgatadi. O'zlashtirilgan tarixiy-ilmiy bilimlarni pedagogik qayta ishlash, darslikdagi materiallarni o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ilmiy xarakterga ega didaktik tamoyillarga muvofiq pedagogik jihatdan moslashtirish maqsadga muvofiq. O'quv materialini moslashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri muammoli, hissiy ekspressivlikni joriy etishdir. "Ekspressivlik" so'zi lotincha ifodalanish, namoyon bo'lish ma'nolarini bildiradi.

5. Tizimlashtirish vazifasi. Bu vazifa o'quv materiallarini qat'iy ketma-ketlikda tizimli shaklda o'quvchilarning ilmiy faoliyatini samarali yo'naltirish missiyasini ta'minlaydi [5, 264]. Darslikda tarixiy materiallarni mantiqan tizimli va izchil bayon etish talabi amalga oshiriladi. Darslikning bu vazifasi materialni taqdim etish va tizimlashtirish ketma-ketligini ta'minlaydi. Xuddi dasturdagi kabi tarix darsligidagi materiallar xronologik tartibda berilib, u mavzular bo'yicha tizimlashtirilgan bo'lishi talab etiladi. Har bir mavzuning materiallari raqam va sarlavha bilan alohida mavzularga bo'linadi. Masalan, 5-sinf darsligidagi "Kishilik madaniyatining shakllanishi" bobi quyidagi mavzular bilan tizimlashtirilgan: qoyatosh suratlari; yozuv – insoniyatning buyuk kashfiyoti; "Avesto" – ajdod-

larimiz yaratgan ilk yozma tarixiy manba; muzeylar.

6. Olingan bilimlarni mustahkamlash va ko'nikmalarini rivojlantirish vazifasi. Darslik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishdagi bo'shliqlarni to'ldirish, o'quv materiallarini o'rganishni osonlashtiradigan imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim. V.G.Beylisonning fikricha, bu vazifa bilimlarni egallash modeli bilan belgilanishi kerak. Darslik orqali o'quvchi taix fanlarida olgan o'quv materialni qayta o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi, o'quvchilarda mustahkam bilimlarni shakllantirish, ulardagi o'z-o'zini rivojlantirish jarayonining yanada yaxshilanishiga asos bo'lib xizmat qiladi [6, 251].

Har bir paragrafdan keyin talaba uy vazifasini tayyorlashda, birinchi navbatda, e'tibor qaratadigan savollar va topshiriqlar, shuningdek, har bir mavzu bo'yicha materialni takrorlash uchun savollar va topshiriqlar bilan amalga oshiriladi. Bu savollarning barchasi xilma-xil bo'lib, o'qituvchiga o'quvchilar bilimni nazorat qilish, ularni o'zlashtirishni osonlashtirish va bilimlardagi bo'shliqlarni bartaraf etishga yordam beradi.

7. Tashkiliy-jarayonli vazifa. Ushbu vazifaning mazmuni fanlararo aloqalarni o'rnatish va jarayonda ta'limning aniqlangan mazmunini to'g'ri tuzishni ta'minlashdan iborat.

8. Integratsiyalash vazifasi. Darslik o'quvchiga unda taqdim etilgan bilimlar xususiyatiga ko'ra tarix fanlariga turdosh fanlardan ham qo'shimcha ma'lumot olishga yordam beradi. Jumladan maktablardagi tarix fanlari "Tarbiya", "Iqtisod", "Huquq", "Psixologiya", "Geografiya" kabi fanlar bo'yicha ham qo'shimcha ma'lumotlar beradi.

9. Muvofiqlashtiruvchi vazifasi. Tarix darslaridagi o'quv materiallari ustida ishlash jarayoniga turli xil o'quv qo'llanmalarini, jumladan, ma'lumotnomalar, muammoli kitoblari, xaritalar, rasmlar, hujjatli filmlar jalb qilinadi.

10. O'qitish vazifasi. O'quvchi darslik bilan ishlashda o'z-o'zini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan umumlashtirish, qiyosiy tahlil, yaxshini yomondan ajrata olish, mantiqiy yodlash kabi ko'nikmalar shakllanadi.

Darslik o'quvchilarning o'quv materialini to'liq o'zlashtirishini ta'minlashi kerak. Biroq darslik matni (qo'llanma matnidagi farqli o'laroq) faqat ma'lumot berish emas, balki, birinchi navbatda, tarix fanlaridagi mavzular mazmunini aniqlashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Shuning uchun darslik qiziqarli, ixcham va qulay bo'lishi, ilmiy xarakter talabiga, ilmiy dunyoqarash, vatanparvarlik, baynalmilallikni shakllantirish vazifalariga ham javob berishi kerak.

Ma'lumki, darslik ta'limning asosiy vositasi bo'lib, unda tarix fanlari yoki uning dasturga mos keladigan qismlari uslubiy jihatdan ko'rsatiladi. U aniq ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga mos bo'lishi, shaxsning rivojlanishiga yordam berishi, ta'lim shakllarining zamonaviy talablari va tamoyillariga javob berishi kerak. Darslikda ilmiy jihatdan ishonchli va dolzarb ma'lumotlar mavjud bo'lib, u didaktikaning muntazamlilik, doimiylik, izchillik, oson o'zlashtira olish kabi qonuniyatlarini hisobga olgan holda tuziladi [8, 274]. Haqiqiy